XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 20-dekabr VII-3-024-10-0-K/24 Toshkent viloyati

Toshkent viloyati hududlarida qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni chiqindi poligonlariga qabul qilish va saqlash xizmatlari uchun yagona tariflarni belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–5-sonli Farmoni talablaridan kelib chiqib, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 25-iyundagi 01/153-son xulosasiga asosan, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-fevraldagi 23-son (XDFU) majlis bayoni 10-bandi ijrosini ta’minlash hamda viloyati hududlarida qattiq maishiy chiqindilarni chiqindi poligonlariga qabul qilish va saqlash xizmatlari uchun yagona tariflarni belgilash va tariflarni tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6 va 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–5-sonli Farmoni Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-fevraldagi 23-son (XDFU) majlis bayoni ijro uchun qabul qilinsin;

1.1. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 25-iyundagi 01/153-son xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi “Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi” viloyat hududiy boshqarmasi davlat muassasasi tomonidan qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni hududiy poligonlarga qabul qilish va saqlash bo‘yicha 1m3

uchun QQS bilan 20 037 (QQSsiz 17 890 so‘m) so‘m miqdorida, 1tn uchun QQS bilan 48 633 (QQSsiz 43423 so‘m) so‘m miqdorida qabul qilinishi yo‘lga qo‘yilsin.

Bunda, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 25-iyundagi 01/153-son xulosasi inobatga olinganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i (Z.Eraliyeva), “Toshkent haqiqati”, “Tashkentskaya pravda” gazetalariga qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni hududiy chiqindi poligonlariga qabul qilish va saqlash xizmatlarining yangi tariflari 2025-yilning 1-yanvar kunidan boshlab qo‘llanilishi yuzasidan ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borilsin.

4. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi “Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi” viloyat hududiy boshqarmasi davlat muassasasi (S.G‘afforov) qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni hududiy chiqindi poligonlariga qabul qilish va saqlash xizmatlarining yangilangan tariflarini 2025-yil 1-yanvar kunidan boshlab qo‘llanishi yuzasidan har bir sanitar tozalash xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borsin;

chiqindilarni hududiy poligonlarga qabul qilish va saqlash bo‘yicha assosiz ravishda belgilangan narxlarni oshirib yubormaslik uchun shaxsan javobgar etib belgilansin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Xudayberganov, viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari O.Tursunov hamda viloyat hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Mahmudov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi FAYZIYEV TO‘LQUNJON OBIDOVICH